

O'ZBEK TILINING LUG'AT TARKIBI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti

BT-4-24 talabasi

Bazarova Dildora Alimardon qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat tilimiz bo'lgan o'zbek tili lug'at tarkibining butun tarixiy davr davomida shakllanish jarayoni yoritilgan. O'zbek tilidagi so'zlarning o'zgarishi mahalliy so'zlardan ba'zilarining adabiy tilga ko'chish jarayonida va boshqa tillardagi so'zlarning tilimizga ko'chib o'tishi natijasida sodir bo'ladi.

Abstract: This article covers the process of formation of the vocabulary of our state language, the Uzbek language, throughout the entire historical period. The change of words in the Uzbek language occurs as a result of the migration of some local words into the literary language and the migration of words from other languages into our language.

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс формирования словарного состава нашего государственного языка – узбекского – на протяжении всего исторического периода. Изменение слов в узбекском языке происходит в результате миграции некоторых местных слов в литературный язык и миграции слов из других языков в наш язык.

Kalit So'Zlar: Lug'at tarkibi, terminologiya, yasama so'zlar, o'zlashgan so'zlar, sheva, neologizmlar, jargon va argolar, atamalar.

Keywords: Vocabulary, terminology, coined words, borrowed words, dialect, neologisms, jargon and slang, terms.

Ключевые слова: Лексика, терминология, придуманные слова, заимствованные слова, диалект, неологизмы, жаргон и сленг, термины.

O'zbek tilidagi barcha so'zlar shu tilda gaplashuvchi kishilar tomonidan bir xilda qo'llanmaydi. Ayrim so'z keng jamoatchilik tilida qo'llansa, ba'zilar esa ma'lum territoriyada yashovchi yoki ma'lum kasb-hunar bilan shug'ullanuvchi kishilar nutqida ishlatiladi. Shunga ko'ra o'zbek tilidagi so'zlar ikki guruhga ajratiladi:

1. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan so'zlar.

2. Ishlatilish doirasi chegaralangan soʻzlar.

Oʻzbek tili lugʻat tarkibining asosiy qismini ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika tashkil etadi.

Oʻzbek tilida gaplashuvchi barcha kishilar tilida qoʻllanadigan soʻzlar ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika deyiladi. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksikadan yashash joyi, kasbi, hunari, jinsi, madaniy saviyasidan qatʼiy nazar barcha oʻzbek millatiga mansub kishilar foydalanadi, shunga koʻra ular umumisteʼmoldagi soʻzlar deb ham yuritiladi. Umumisteʼmoldagi soʻzlarning maʼnosi hammaga tushunarli boʻladi. Bu soʻzlar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, barcha soʻz turkumlariga oid boʻladi. Umumisteʼmoldagi soʻzlarning koʻp qismini umumturkiy soʻzlar va oʻzbekcha soʻzlar tashkil etadi.

Boshqa tillardan kirgan soʻzlar ham oʻzbek xalqining barchasiga tushunarli boʻlsa, ular ishlatilish doirasiga koʻra chegaralanmaydi. Masalan, arab tilidan oʻzlashgan shamol, soat, inoq, dohiy, magʻrur, hafa, maqol, hayot, millat, hikoya soʻzlari; tojik tilidan oʻzlashgan goʻsht, non, sozanda, suhbat, sabzavot, ombur kabi soʻzlar; rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan traktor, kino, teatr, tsirk, [kartoshka](#), fabrika, zavod kabi soʻzlar umumxalq tilida qoʻllanadi. Demak, ishlatilish doirasi chegaralanmagan soʻzlar oʻz qatlamga ham, oʻzlashgan qatlamga ham oid boʻlishi mumkin.

Tildagi soʻzlarning umumxalq tomonidan ishlatilmaydigan qismi ishlatilish doirasi chegaralangan soʻzlar deyiladi. Bunday soʻzlarning ishlatilishi maʼlum sabablarga koʻra chegaralangan boʻladi. Ishlatilish darajasi chegaralangan soʻzlarga dialektal soʻzlar, atamalar, jargon va argolar kiradi. Dialektal leksika ishlatilish territoriyaga koʻra chegaralangan soʻzlar boʻlib, ular adabiy tilga kirmaydi. Maʼlum bir xududdagi kishilar nutqida qoʻllanib, ulargagina tushunarli boʻlgan soʻzlar sheva soʻzlari deyiladi.

Sheva soʻzlari yigʻindisi dialektizm deb yuritiladi. Dialektizm – yunoncha soʻz boʻlib, dialektos – “tilning mahalliy koʻrinishi” demakdir. Shuning uchun dialektizm umumtilning mahalliy koʻrinishi boʻlgan dialektlarga xosdir. Oʻzbekiston misolida aytadigan boʻlsak har bir viloyatning oʻziga xos boʻlgan, faqat shu viloyat yoki viloyatning maʼlum bir hududidagina qoʻllaniladigan soʻzlar mavjud. Masalan, qorinja (chumoli), gʻoʻz (yongʻoq), karvich (gʻisht) – Xorazm; norbon (narvon), bodrak (varrak), poku

(ustara) – Buxoro; mishiq (mushuk) - Farg‘ona; inak (sigir), mo‘rcha (chumoli), pishak (mushuk) - Samarqand shevasida.

Shevadagi ba‘zi so‘zlar adabiy tilda ham bo‘lishi mumkin. Lekin ular boshqa-boshqa ma’nolarni bildiradi. Masalan: kosa so‘zi Xorazm shevasida «piyola» ma’nosini, adabiy tilda «suyuq ovqat soladigan idish», lagan so‘zi Xorazm shevasida kir yuvadigan tog‘ora, adabiy tilda «quyuq ovqatlarni soladigan idish» ma’nosini bildiradi.

Yozuvchilar badiiy asarda mahalliy koloritni berish, qahramonning nutqini individuallashtirish, [uning qayerlik ekanini](#), tilidagi xususiyatlarni ko‘rsatish maqsadida sheva so‘zlardan foydalanadi.

O‘zbek tilida ma’lum bir toifa vakillari tomonidan qo‘llaniladigan so‘zlar ham mavjud bo‘lib bunday so‘zlarni umumiy va mahalliy qismlarga bo‘lib mumkun emas. Shuning uchun bu toifadagi so‘zlarni ma’lum bir kasb-hunarga oid so‘zlar deyiladi.

O‘zbek xalqi qadimdan turli kasb-hunar bilan shug‘ullanib keladi. Shuning uchun O‘zbekistonda kasb-hunar tarmoqlari taraqqiy etgan. Jumladan, kulochilik, naqqoshlik, kashtachilik, duradgorlik, terimchilik, [ovchilik](#), chorvachilik, kosibchilik va hokazolar shular sirasiga kiradi. Turli kasb-hunarga doir so‘zlar kasb-hunar leksikasi deyiladi. Hozirgi o‘zbek tili leksik tarkibida kasb-hunarga doir so‘zlarga boy. Masalan: kulolchilikda dog‘chil (xum yasashda ishlatiladigan asbob), aspak yoki ob yog‘och, bandak, bog‘ich (idish chetini tekislash uchun ishlatiladigan latta, charm yoki kigiz parchasi) kabi so‘zlar, suvoqchilik sohasida bozi (tokcha yoki), andava (asbob), loykash (kishi), mola gazcho‘p (asbob) kabi maxsus so‘zlar bor. Ular shu hunar egalari tilida qo‘llanadi va ular uchun tushunarlidir. Yozuvchilar badiiy asarlarda qahramonlarning mehnat faoliyatini ko‘rsatishda kasb-hunarga doir so‘zlardan foydalanadilar.

Atamalar. Fan-texnika, xalq xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligiga doir ilmiy tushunchalarni aniq ifodalaydigan so‘zlar atamalar deyiladi. Fan-texnika va ishlab chiqarish sohasida qo‘llanadigan terminlarning jami terminologiya (terminologik leksika) deb yuritiladi. Masalan: fonetika, leksika, morfologiya, [morfemika](#), sintaksis – tilshunoslikka oid; kvadrat, ildiz, teorema – matematikaga doir; sifatlash, o‘xshatish, jonlantirish – adabiyotshunoslikka doir atamalardir. Hozirgi kunda dunyoda fanning 500 dan ortiq tarmoqlari bor, ular har tomonlama taraqqiy etmoqda. Bu tilda atamalarning boyib

borishiga olib keladi. Atamalar ilmiy nutqda qo'llanadi va ular bir ma'noli bo'ladi. Ba'zi atamalar o'zbek tilida so'zlashuvchi barcha kishilar nutqda qo'llanib ommalashib ketishi mumkin. Bunda ular ishlatilish doirasi chegaralanmagan umumxulq so'ziga aylanadi. Masalan, o'qituvchi, kitob, daftar, dars kabi.

O'tmishda xalqni ekspluatatsiya qiladigan sinf vakillari, [saroy ahllari](#), mansabdor shaxslar, savdogarlar, qalandar, maddohlar, xalqni aldab yuruvchi gadoylar, o'g'rilar, firibgarlar o'z niyatlarini xalqdan yashirish uchun o'zlariga tushunarli so'z va iboralardan foydalanganlar. Tilda sinfiy ayirmalikni ko'rsatib turadigan bunday so'zlar «sinfiy dialektning so'zlari» - jargonlar deb yuritiladi.

Ayrim ijtimoiy [guruhlar tomonidan yaratilib](#), umumxalq tilidan farq qiladigan dabdabali so'z va iboralar jargonlar deyiladi. Masalan, oftobi olam (podsho), husni mutlak (xudo), nishoni oliy mon, shoe' qiling (bildiring), mal huz emas (mulohaza qilingan emas), ne'mati jannat (yor, mahbuba), shavaqu' aylang (umid bilan kuting), tanzil (foйда).

O'g'rilar, qimorbozlar orasida qo'llanadigan so'zlar argolar deb yuritiladi; loy (pul), xit (militsoner), bedana (to'pponcha), xitola (o'g'irla), zamri (jim tur), atamri (gapir), atanda (qoch) kabi. Qadimda savdogarlarning, otarchilarning ham argolari bo'lgan: yakan (pul), joyi (yo'q), xasut (non), dax (yaxshi, durust) – otarchilar argosi; sar yoki sari piyoz (ming so'm), saru nimsar (bir ming besh yuz so'm), kapara (olti ming so'm).

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak o'zbek tilining leksik tarkibi xilma xildir. Turli davrlarda, turli sharoitlarda kirib kelgan so'zlar bugungi o'zbek tilining leksik tarkibini tashkil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rajabov A. Til va tafakkur. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002.
2. Muminov I., Normatov U. O'zbek tilida o'zlashma so'zlar va ularning lingvistik tahlili. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010.
3. Yo'ldoshev B. Neologizmlar va zamonaviy o'zbek tili. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent: Fan, 2006.
5. Mahmudov N. O'zbek adabiy tili taraqqiyot bosqichlari. Toshkent: Ma'naviyat, 2015.